

“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL

TALABALARNING ADABIY NUTQIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA BADIY ASARLARNING AHAMIYATI

Meyliqulova Manzura Abdullayevna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning og'zaki nutqini o'stirishda badiiy asarlarning o'rni haqida, badiiy asarlarni o'rganishda foydalaniladigan interfaol metodlarning qo'llanilishi va ularning samarasi haqida fikr yuritiladi. Maqolada tafakkur va ong rivoji, so'z boyligi, inson nutqi uning ko'proq badiiy asarlar o'qishi bilan bevosita bog'liqligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Og'zaki nutq, interfaol metodlar, ko'nikma va malaka, nutq o'stirish, nutqining rivoji, badiiy asar, tasviriy vositalar

Аннотация: В статье рассматривается роль произведений искусства в развитии устной речи учащихся, использование интерактивных методов при изучении произведений искусства и их эффективность. В статье обсуждается прямая взаимосвязь между развитием мышления и сознания, словарного запаса и речи человека с увеличением объема чтения произведений искусства.

Ключевые слова: устная речь, интерактивные методы, навыки и квалификации, развитие речи, художественные произведения, наглядные пособия

Annotation: This article discusses the role of artistic works in the development of students' oral speech, the use of interactive methods used in the study of artistic works and their effectiveness. The article discusses the direct relationship between the development of thinking and consciousness, vocabulary, and human speech with the increased reading of artistic works.

“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL

Key words: Oral speech, interactive methods, skills and qualifications, speech development, speech development, artistic work, visual aids

Kirish. Nutq inson tafakkurining mahsuli bo’lib, u og’zaki va yozma nutq turlariga bo’linadi. Og’zaki nutq insonning ijtimoiy yondashuvi asosida shakllanib boraveradi. Yozma nutq og’zaki nutqqa haraganda sal murakkab nutq ko’rinishidir. Chunki yozma nutqda fan olimlari tomonidan ishlab chiqilgan ma’lum qonun-qoidalarga amal qilinadi. O’quvchilarning og’zaki nutqlarini o’stirishda badiiy asarlarning o’rni benihoya katta. U asar epik, lirik, drammatik, qaysi janr bo’lishidan qat’iy nazar, qancha ko’p mutolaa qilinsa, ijtimoiy vaziyatda o’quvchida ham ma’lum bilim, ko’nikma va malakalar shakllanib boradi, ham uning nutqi rivojlanishiga olib keladi. Badiiy asarlar o’quvchilarning nafaqat nutqini, ularning so’z boyligini oshiradi. Tafakkuri va ongi rivojlanib boradi. So’z boyligida lug’atlar ko’payadi. Nutqining rivoji esa hayotda o’ziga ishonch paydo qila oladi. Chunki, inson nutqi, uning so’z boyligi qancha ko’p bo’lsa, u kelajakda o’z haq-huquqini ta’minlash uchun har qanday vaziyatdan so’zlar orqali chiqib keta oladi.

Badiiy asarlarni o’qitishda ham unga mos usullar tanlab olinadi. O’quvchilar boshlang’ich sinflarda ertaklarni o’qiganida, undagi mard, jasur qahramonlarga qiziqadi. Ayrim qahramonlarning harakatlari fantastik tarzda berilganligi, ertakdagi tasviriy vositalarning rang-barangligi, qahramonlarning tashqi ko’rinishlari murg’ak qalbni qiziktirib qo’yadi va qayta-qayta o’qishga, o’qiganini qayta so’zlab berishga harakat qiladi.

Adabiyot darslarida o’quvchilar nutqini o’stirishning o’ziga xos xususiyati shundaki, o’qituvchi darsda o’quvchilarda badiiy asarni o’qish, yod olish, ifodali so’zlash malakalarini o’stirish orqali ularning grammatik qoidalarini ham so’z san’atining qonuniyatlarini egallab olishlariga erishadi, adabiy nutqlarini rivoj toptiradi. O’quvchilarning og’zaki nutq madaniyatini taraqqiy ettirish adabiyot o’qitishning sifatiga bog’liq. Shu bilan birga nutq madaniyatini rivojlantirish darsda leksik mashqlar, qayta hikoyalash, bayon, insho kabi mashg’ulotlarni uyushtirib turishni ham taqozo etadi. Og’zaki nutq suhbatdoshning fikrini tez anglashi, suhbatda zarur bo’lgan so’zni tez topishni, har bir so’zning ma’nosini matnga bog’liq holda tushuntirishni, qo’llanadigan so’zlarning o’ziga mos sinonimini topib

“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL

ishlatishni talab qiladi. Tabiiyki, og‘zaki nutqda o‘ylab so‘z topishga vaqt bo‘lmaydi. Yuqori sinf o‘quvchilari adabiyot darslarida she‘riyat, hikoya, qissa, roman, drama kabi janrdagi asarlarni o‘qiy boshlaydi va shu yo‘sinda ularning tafakkuri ham rivojlanib boraveradi. O‘quvchi hikoyani, qissani yoki katta janr hisoblangan romanlardan parcha o‘qiyotganida bevosita shu asar qahramonlari bilan birga yashaydi. Ijobiy va salbiy qahramonlarni ajratadi. Ijobiy qahramonlarga nisbatan qalbida mehr, salbiy qahramonlarga nisbatan esa qahr va nafrat uyg‘onadi va o‘z-o‘zidan o‘quvchining insonlarga xos bo‘lgan xarakter ham dars davomida shakllanib boraveradi. O‘qituvchi darsda asarning umumiy mazmuni haqida tushuncha berayotganida, nainki uni so‘zlab berayotganida o‘quvchi qalbiga kira olsagina, o‘quvchi shu asarni o‘qiydi. O‘qituvchidan esa bu borada katta mahorat talab qilinadi.

O‘quvchiga shu mavzuga mos ravishda tanlangan metod orqali yetkazilgan har qanday asarni, janridan qat‘iy nazar, u asarni tinglab tushunishi, uni qayta so‘zlab berishi, asar qahramonlarini va qahramonlarning vaziyatlarini tahlil qila olishi, fikrlarini yozma bayon qila olishi kerak.

Masalan, Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasidan olingan “Qochoq” deb nomlangan parchani olaylik. Asarni o‘qishda uning mazmunini tahlil qilish va shu asosida talabalarning og‘zaki nutqini o‘stirish asosiy o‘rin egallaydi. Asar o‘qituvchi tomonidan so‘zlab berilgach, talabalar asar qahramonlari haqida, asardagi voqealarning davri haqida, o‘sha davrning asar qahramonlariga bo‘lgan ta’siri haqida bir o‘ylab olishlari va o‘z fikrlarini bildirishi uchun talabalarga topshiriq beriladi. Talaba asarni zamon bilan birga tahlil qiladi. Asar qahramonlariga nisbatan o‘z fikrlarini bildiradi. Asar yuzasidan o‘zining shaxsiy qarashlarini bildirib o‘tadi, tahlil qiladi. Tahlilda o‘qilayotgan asar matnining tushunarligi katta ahamiyatga ega. Tushunarlik yozuvchi yaratgan olamning o‘ziga xosligi, talabalarning bilim darajasiga muvofiqligi nazarda tutiladi.

Talaba mustaqil fikrlayotgan paytda o‘qituvchi fikrini bo‘lmasligi, qo‘shimcha fikr bildirmasligi, qolgan talabadan izoh so‘ramasligi kerak. Chunki, har bir kitobxonning asar yuzasidan o‘z shaxsiy fikri bo‘ladi. Keyinchalik barcha fikrlar tinglanadi, bir-biriga yaqin va o‘xshash fikrlar umumlashtiriladi va so‘ngida xulosa qilinadi. O‘qilgan asar yuzasidan talabalarga quyidagicha umumiy savollar berish mumkin.

“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL

1. Asar sizga yoqdimi?
2. Sizga qaysi qahramonlarning xarakteri yoqdi?
3. Siz o’sha davrni qanday tasavvur qildingiz?
4. Tursunboyning shu darajada “inson qiyofasidagi maxluq” bo’lib ulqayganiga kimni aybdor deb bilasiz, ota-onasimi yoki davrmi?
5. Tursunboyning onasi haqida nimalar deya olasiz?
6. Tursunboyning qismati haqida fikringizni bildiring? va h..

Asarni o’rganishda savollarni odatda o’qituvchi beradi, ammo asar mazmuni, asar qahramonlarining xulq-atvorini ochish yuzasidan o’quvchilarga ham savollar tuzdirish mumkin. Bu usul o’quvchilarga yoqadi va asar mazmunini yaxshi tushunish, o’z fikrini izchil bayon qilish, asar mazmunini yaxshi tushunish, o’quvchining og’zaki nutqini o’stirishda yordam beradi.

Asar yuzasidan savollarni o’rtaga tashlagandan so’ng talaba mustaqil fikrlaydi. Asar yuzasidan o’zining shaxsiy harashlarini bildirib o’tadi, tahlil qiladi. Asarni o’rganish jarayonida sinfni guruhlariga bo’lib o’rganish mumkin. Adabiyot darslarida talabaning adabiy nutqiy layoqatini o’stirishda didaktik o’yinlarni amalda qo’llash ham o’ziga xos xususiyatlarni ochib beradi. Didaktik o’yinlar talabada tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tatbiq qilish, hisoblash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, axloq-odob o’rgatish, nutq o’stirish, til o’rgatish, yangi bilimlar o’rgatish va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirishga yo’naltirilgan ta’lim turlaridan hisoblanadi. Said Ahmadning “Ufq” romanini tahlil qilishda ana shu o’yin metodlaridan biri 6X6X6 metodidan foydalanish ham talabalarni bahs-munozaraga olib keladi va ularning og’zaki nutqini shakllantirishda muhim rol o’ynaydi. Bu metoddan adabiy asarlar ustida ishlashda foydalanishda adabiyot o’qituvchisidan pedagogik mahorat va ziyraklik, guruhlarini oqilona shakllantira bilish talab qilinadi. Bu metodda sinfdagi o’quvchilar oltita-oltita guruhlariga bo’linadi. Guruhlarga muayyan nomlar beriladi. Dars mavzusi e’lon qilinadi. “Tursunboyning taqdiri nima uchun shunday

“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL

bo’ldi”. O’qituvchi guruhning a’zolarini almashtiradi. Yangi guruhda avvalgi guruhdan bitta vakil qoladi va mavzu yuzasidan chiqargan xulosalarni yangi guruhga bayon etadi. Yangi guruh a’zolari avvalgi guruhning fikr va xulosalarini o’rganadilar, unga o’z munosabatini bildiradilar. Shu tariqa qisqa vaqt ichida o’quvchilar tomonidan ham mavzu yuzasidan fikr bildiradi, ham bu fikrlar ularning o’zlari tomonidan taqlil qilinadi va baholanadi, unga o’z munosabatini bildiradilar. O’qituvchi o’quvchilarni asar matni bilan tanishtirishdan oldin asardan olingan alohida voqealar ifodalanishi bilan bog’liq qismlarni bog’lab chiqmog’i lozim. Har bir bo’limga ramziy sarlavhalar qo’yib, shu asosda reja tuzib olsa, parchada ifodalangan voqea, qahramonlarning xarakter xususiyatlari, ularning nutqi, voqealar bo’lib o’tayotgan joyning tabiat manzarasi, asarning tili va badiiy xususiyatlari o’quvchilar nazaridan chetda qolmaydi. O’qituvchi Ikromjon, Jannat xola va ularning o’g’illari Tursunboy munosabatlari haqida gap ketganda, quyidagi savol bilan murojaat etishi maqsadga muvofiq; “qani aytinglarchi, shunday hurmatli insonlarning yolg’iz bolasi nega xudbin, Vatanga xiyonat qilishdek tubanlikkacha bordi” To’g’ri, ushbu savol chuqur o’yga toldirishi mumkin. Biroq qanchalik murakkab tuyulmasin, bu savolga javob topmasdan, asar tahlilini davom ettirish mushkul. Bundan tashqari, “Debatlar” ham Talabani bahs-munozaraga va fikrlashga, o’zlarining mustaqil fikrlarini ayta olishga va o’zlarining haq ekanligiga boshqalarni ishontirishga o’rgatadi. Debatlar bu jamoaning hamkorlikdagi faoliyati bo’lib, jamoaning har bir a’zosi o’zining burch va majburiyatlariga ega bo’ladi, kim g’alabaga erishganini esa debat yakunida jamoalarning argumentlari, faktlari, javoblar asosida hakamlar jamoasi yoki o’qituvchi belgilab beradi. Debat o’tkazilganda 3 ta tamoyilga amal qilish kerak.

1. Debatlar ko’p narsaga o’rgatadi. (Debat o’tkazishdan maqsad faqat g’alaba qozonish emas, balki asosiy maqsad, yangi bilimlarni egallash)
2. Jarayonda faol ishtirok etish.
3. O’zaro hurmatni saqlash. Ishtirokchining shaxsiga qasddan aloqaga kirishmaslik shart. Shu o’rinda, yozuvchi Asqad Muxtorning “Chinor” romanidagi Akbarali obrazi misolida “Debat” metodining amalga oshirilish jarayoni tavsiya etiladi. Darsning maqsadi: o’zaro fikr almashish,

ISSN (E): 2181-4570

CONFERENCE SPECIAL ISSUE

CROSSREF Prefix: 10.66301

“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL

“Chinor” romanidagi Akbarali timsoliga to’liq tavsif berish, o’z qarashlarini, nuqtai nazarlarini asosli bayon etish, aniq, ravon tushunarli tilda fikrlarni yetkazib berish ko’nikmasini rivojlantirishdan iborat.

Bundan tashqari, Asqad Muxtorning “Chinor” romanini o’rganishda FSMU texnologiyasidan foydalanish ham o’rinli. Bu texnologiyadan foydalanishda o’qituvchi har bir talabaga FSMU texnologiyasining 4 bosqich yozilgan qog’oz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni to’ldirishni iltimos qiladi.

F- fikringizni bayon eting

S-fikringiz bayoniga sabab ko’rsating

M-ko’rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring

U-fikringizni umumlashtiring

Yakka tartibdagi ish tugagach, talabalar kichik guruhlariga ajratiladi va o’qituvchi kichik guruhlariga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan katta formatdagi qog’ozlarni tarqatadi. Kichik guruhlariga har birlari yozgan qog’ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan qolda 4 bosqich bo’yicha yozishlarini taklif etiladi. O’qituvchi kichik guruhlarining yozgan fikrlarini jamoa o’rtasida himoya qilishlarini so’raydi. Mashg’ulot o’qituvchi tomonidan muammo bo’yicha bildirilgan fikrlarni umumlashtirish bilan yakunlanadi. Masalan. “Chinor-chinakam badiiy asar” mavzusi bo’yicha fikrlaringizni bayon qiling.

F-“Chinor” romani Asqad Muxtorga katta shuhrat keltirgan asarlardan biridir.

S-“Chinor” romanida yaxshilik, ezgulik, mehr ko’rsatish, taqdirlar zanjiri, shafqatsiz va chigal hayot muammolari o’z ifodasini topganligi bois asar umrboqiydir.

M-Romanga jalb etilgan barcha katta-kichik insoniy taqdirlar asar markazida turuvchi obraz-93 yoshli Ochil bobo taqdiriga borib bog’lanadi, romanda uzoq yurtga tarqab ketgan uzoq-yaqin qarindoshlaridan xabar olgani otlangan Ochil boboga qo’shilib o’quvchi ham olis safarga chiqadi va u yerda har xil taqdirlar orqali goh shirin goh achchiq hikoyalarga oshno tutinamiz, asarning fojeali

“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL

qismati egalaridan biri Akbarali. U onasini yaxshi ko’radi, urushda o’lgan otasining xotirasiga hurmatini yo’qotmagan. Agar yarim kechasi uning uyiga otasining do’sti Bektemir kirib kelmaganida balki Akbaralining sokin hayoti yana uzoq davom etgan bo’lardi...Akbarali Bektemirga yaxshilik qilaman deb o’zi bilmagan holda uning hayotiga zomin bo’ldi. Buning uchun esa u o’zini hech qachon kechirmaydi va faqat vijdon azobida qiynalab yuradi. Bektemir bir necha yillar urush dahshatlarini boshidan kechirgan edi. U bir emas, o’n emas, yuzlab marotaba ajalga ro’baro’ kelgan, ammo uning changalidan qutulishga kuch topa olgan. Endi yashayman, urushda ko’rgan azoblarimning hammasi evaziga endi yashayman deb yurtiga qaytgan odam edi. Shunday insonning umriga Akbarali zomin bo’ldi. Akbarali Bektemirni bo’g’ib, osib o’ldirmadi. Hatto haqorat qilgani yo’q. Bor-yo’g’i...hech nima qilmadi, xolos...

(Talaba yuqoridagi voqealarni tahlil qiladi, fikr bildiradi, asar qahramonlarining taqdiriga qiziqadi...)

U - qaysiki asar yaxshilikni, mehr-muhabbatni, insonlarga xos bo’lgan ijobiy xarakterni, milliy qadriyatlarni, ezgulikni ulug’lar ekan, bu asarning umri boqiydir. Shu kabi interfaol metodlar adabiyot darslarida qo’llanilganida darsda nafaqat faol o’quvchi, balki, darsda passiv ishtirok etadigan talaba bir og’iz bo’lsa ham o’z fikrini bayon etadi. Bu esa talabalarni og’zaki fikrlashga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Niyozmetova R.,“Adabiyot darslarida o’quvchilarning og’zaki va yozma nutqini o’stirish”. Toshkent. 2018
2. 8-sinf adabiyot darsligi. S.Olim, S.Aqmedov, R.Qo’chqorov. – Toshkent: G’.Gulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2019 yil;
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. (ta’lim muassasalari pedagog o’qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar) Toshkent-2008

“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL

4. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. S.Olim, S.Ahmedov, R.Qo‘chqorov. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2006 yil;